

## FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA)

**Behzod Xudoyqulov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi  
bekhzod338@gmail.com

**Mavluda Jumayeva**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Har bir tilda, iboralar nutqning ko'rkidir. Shu maqsadda muloqotda nutq o'stiruvchi vositalarni, ulardan foydalanish usullarini, iboralar va tasviriy ifodalarni o'rganish muhimdir. Har bir tilda bo'lgani kabi italyan tilida ham frazeologik iboralar muhim tadqiqot mavzusi bo'lib, shu paytgacha ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Mazkur maqolada italyan tilidagi iboralarning tematik tasnifi va semantik xususiyatlari atroflicha yoritib berilgan. Boshqa chet tillari kabi italyan tili ham iboralarga boy til hisoblanadi. Ushbu maqolada italyan tilidagi ayrim iboralarning tasnifi va semantik xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Frazeologizm, bora, tarjima, shakl va ma'no, ko'chma ma'no, ekvivalent.

## THEMATIC AND SEMANTIC ANALYSIS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ITALIAN LANGUAGE

### ABSTRACT

Phraseology is an integral part of each nation's heritage. It is through phraseology that the mentality and lifestyle of a given society are transmitted and reflected. Phraseology provides invaluable clues to understanding the thought processes of any population. It represents the treasury of any language, because phraseology reflects the history of people and their national character.

The article focuses on the analysis of phraseological units in Italian. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.

**Keywords:** Phraseology, phraseological unit, translation, expression, equivalent.



## KIRISH

Tilshunoslikda aksariyat hollarda iboralarga nisbatan frazeologik birlik sifatida qaraladi. Frazeologik tizimning milliy-madaniy muammolari hozirgi kunga kelib, ko'plab tilshunoslarning tadqiqot ob'ektiga aylanayotganligi bejiz emas, albatta. Buni oxirgi yillarda "Til va madaniyat" muammosiga bo'lgan e'tibor va qiziqish, shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning antropologik paradigmasida rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Tilning inson bilan o'zaro, chambarchas bog'liqligini hisobga olgan holda uning ongi, dunyoqarashi, ruhiy va amaliy faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antropologik tilshunoslik nazariyasining frazeologik tizimga tatbiq etish zaruriyati tabiiy va muhim voqelikdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologizmlar va turg'un ifodalar asosida shakllangan frazemali idiomalar Bunga qo'shimcha ravishda, bu tasniflashni yanada kengaytirish mumkin. Frazeologizmlarni semantik xarakteriga ko'ra quyidagicha ajratish mumkin:

- Fe'li iboralar
- Predlogli iboralar
- Gastronomik iboralar
- "Non" so'ziga oid iboralar
- "Suv" so'ziga oid iboralar
- Son komponentli iboralar
- Tana a'zolariga oid iboralar
- Hayvon nomlariga oid iboralar
- Rang – tus nomlariga oid iboralar
- Vaqt so'ziga oid iboralar
- Oila mavzusiga oid iboralar
- Yer so'ziga oid iboralar
- Oy so'ziga oid iboralar
- So'z va so'zlashga oid iboralar
- Tinchlik so'ziga oid iboralar kabi.

Italyan tilida ham iboralarni semantik xarakteriga ko'ra ushbu guruhlariga ajratish mumkin:

### 1. Modi di dire con i verbi - Fe'li iboralar:

**Dare una mano** - Yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq .

**Alzare le mani** - Qo'l ko'tarmoq/urmoq.

**Di seconda mano** - Ishlatilgan, qo'ldan – qo'lga o'tgan narsa buyum (avtomobil) ga nisbatan ham ishlatiladi.

**Chiedere la mano** - Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq) ma'nosida ishlatiladi.

**Prendere per mano** - Yordam bermoq, to'g'ri yo'lni korsatmoq.

**Essere al settimo cielo**- Baxtga/ quvonchga to'la bo'lmoq.

**Dare coraggio** - Ruhlantirmoq.

**Andare in fumo** - Barbod bo'lmoq

**Essere in gamba** - O'zini o'nqlab olgan, oyoqqa turgan.

**Essere a portata di mano**- Juda yaqin, bir qadamda.

**Fuori mano** - Uzoqda/ uzoqda joylashgan

**Mani in pasta** - Qo'lida ishi bor/ishi tayin

**Ha le mani bucate** - Qo'li ochiq, sahiy;

## **2. Modi di dire con le preposizioni - Predlogli iboralar:**

**A caro prezzo** - Qimmat narxda

**A dire il vero** - Rostini gapirganda

**A dirla schietta** - Ochiq,oydin gapirganda

**A due mani** - Sahiy

**A mano a mano** - Sekin-sekin, bosqichma-bosqich.

**A nessuno e nascosto** - Hech kimga sir emas (hammaga ma'lum...)

**A noi!** - Boshladik! (Bizning navbat!)

**A norma di legge** - Qonunga muvofiq

**Alla buona** - 1.Oddiy, 2. Shikoyatsiz

**Di buon passo** - Tez qadamlar bilan

**Di buona lega** - Yaxshi sifatda (sifatli).

**Di fatto** - Aslida

**Di sotto il naso** - Burinning ostida

**Di sua resta** - O'z aqli bilan, mustaqil ravishda

**Di tutto il cuore** - Butun yuragi bilan

**Di tutto l'anima** - Bor qalbi bilan

**Di buon'ora** - Barvaqt;

**Di gran lunga** - Juda, juda ko'p;

**Di punto in bianco** - To'satdan, tasodifan

## **3. “Non” (Pane) so‘zi bilan ishlatiladigan iboralar:**

**“Buono come il pane“** – Muloyim insonga nisbatan

ishlatiladi

“**Non è pane per i tuoi denti**” – (Bu narsa) Senga atalmagan, degan ma’noda ishlatiladi.

“**Per un pezzo di pane**” – Juda past narxda.

“**Essere come pane e cacio**” – Butunlay rozi bo‘lmoq, kelishmoq

“**Mettere a pane e acqua**” – Jazo bermoq

“**Dire pane al pane, vino al vino**” – Ochiq-oydin gapirmoq

“**Chi ha i denti non ha il pane e chi ha il pane non ha i denti**” – Ilhom bo‘lganda imkoniyat yo‘q, imkoniyati bo‘lganda ilhom yo‘q.

“**Levarsi il pane di bocca**” – Boshqalar uchun o‘zini (borini) fido qilmoq.

“**Misurare il pane**” – Rizqini qiymoq, xasis bo‘lmoq.

#### 4. “Suv” (Acqua) so‘zi bilan ishlatiladigan iboralar:

Acqua in bocca! – Jim! Sirni boy berma ma’nosida .

All’acqua e sapone – Tabiiy, bo‘yoqlarsiz.

Andare il cervello in acqua – Aqldan ozmoq. Ahmoqona gapirmoq.

Avere (o venire) l’acquolina in bocca – Biror taomga kuchli xohishi, istagi bo‘lmoq.

Bere d’ogni acqua – Mavjud bo‘lgan, mumkin bo‘lgan barcha narsani olmoq.

Essere come bere un bicchier d’acqua – Juda yengil, oson bo‘lmoq.

Essere con l’acqua alla gola – Qiyinchilikda bo‘lmoq.

Essere come l’acqua e il fuoco – Butunlay mos kelmaydigan.

Essere in acque basse – Mablag‘i kam bo‘lmoq.

Fare acqua da tutte le parti – Ishlamaydigan, nosoz (narsa)

Gettare acqua sul fuoco – Vaziyatni tinchlantirmoq.

#### 5. Quyidagi misollarda italyan tilidagi ayrim somatik iboralarga to‘xtalib o‘tamiz:

**Prenderci la mano** - *O‘rganib olmoq, qo‘li kelishib qolmoq.*

**Fatto a mano** – *Qo‘lda yasalgan, yasama*

**Ci si lavano le mani** – Ma’suliyatsiz bo‘lmoq - *biror ma’suliyat olmaydigan kishiga nisbatan.*

**Avere le mani sporche** – *Aybdorlikni ifodalaydi. (so‘zma-so‘z tarjimada - kir qo‘llari bo‘lmoq).*

**Lavarsene le mani** – *Ma’suliyatdan bosh tortish*

**Mettere la mano sul fuoco** - *Kafolat bermoq, aniqligini tasdiqlamoq.*

**Mani pulite** – *To‘g‘ri, xatoga yo‘l qo‘ymagan*

**Stringere la mano** – *Yaxshi, muvaffaqiyatli kelishuvlar bo'lganda ishlatiladigan ibora.*

**Avere le mani lunghe** - Qo'li uzun bo'lmoq, yetarli qudrati bo'lmoq.

**Mettersi le mani nei capelli** (si fa così quando si è disperati) – *Umidsiz qolmoq ma'nosida.*

**Un pugno di mosche in mano** – *Hech narsaga erishmasdan, hech narsasiz qolmoq.*

**Essere un tipo o una persona alla mano** - *do'stona, ko'ngli ochiq va har qanday vaziyatga kirishib keta oladigan odamga nisbatan ishlatiladi.*

**Essere a portata di mano** - bu ibora biror joyni juda yaqinda joylashganini ifodalashda ishlatiladi. Ma'nosi: *Juda yaqin, bir qadamda.* Iboraning aksi - **fuori mano**; Ma'nolari: Uzoqda/ uzoqda joylashgan

**Prendere per mano** – *Yordam bermoq, to'g'ri yo'lni korsatmoq* kabi iboralar misol bo'ladi.

#### 6. Italyan tilidagi “bosh” komponentli somatik iboralar:

**Tagliar la testa al toro** - *Keskin qaror qabul qilmoq. (So'zma – so'z tarjimasi -Ho'kizning kallasini kesmoq)*

**Lavare la testa all'asino** - *(So'zma – so'z tarjimasi –Eshakning kallasini yuvmoq)-* Iбора – *Foydasiz ishni bajarmoq ma'nosida.*

**Dare una lavata di testa a qualcuno** – Biror kishiga qattiq tahbeh bermoq.

**Fasciarsi la testa prima d'essersela rotta** - Biror narsa uchun oldindan (befoyda) tashvishlanmoq.

**Essere una (gran) testa** – Ma'nosi - *Judda zukko, aqlli inson. (So'zma – so'z tarjimasi –kallasi bor).*

**Testa matta, stramba** – *O'zini hayratlanarli, g'alati tutadigan insonga nisbatan ishlatiladi.*

**Testa calda** – *G'ayrati/jahli tez odam ga nisbatan ishlatiladi.*

**Testa dura** – *O'jar/qat'iyatli odam ga nisbatan ishlatiladi.*

#### 7. Italyan tilidagi “ko'z” komponentli somatik iboralar:

**Chiudere un occhio** → O'zini hech narsa bo'lmagandek tutmoq, biror narsaga ko'z yummoq.

**Aprire gli occhi** → *Ko'zini ochmoq (to'g'ri yo'lni ko'stamoq.)*

**A occhi chiusi** → Osonlik bilan, katta ishonch bilan (biror ishni bajarmoq)

**Occhio e croce** → Chamasi, taxminan.

**A quattr'occhi** → *Ikki kishining yaqin, yuzma-yuz muloqoti da ishlatiladi – Ko'z-ko'zga tushib, yuzma – yuz ma'nolarida.*

**Vedere di buon occhio** → *Xayrihoxligi bo'lmoq (biror kishiga yoki vaziyatga nisbatan).*

#### **8. Modi di dire sugli animali - hayvon nomlariga oid iboralar**

**Tagliare la testa al toro** - Muammoga yechim topish.

**Una febbre da cavalla** - Yuqori darajadagi isitma.

**Cavallo di battaglia** - Eng yaxshi uddalangan ish/asar.

**Essere a cavallo** - Yaxshi joyda/nuqtada bo'lish.

**Una dose da cavallo** - Dorining yuqori dozasi – ga nisbatan ishlatiladi (tibbiyotda)

**Capro espiatorio** - Hamma aybni o'z bo'yniga oladigan.

**Salvare capra e cavoli** - Har ikkala talabni ham qondirmoq/qoniqtirmoq.

**Essere come una cicala** - Kun o'tariga yashab, pulni sarflaydigan.

**Essere come una formichina** - Pulni tejaydigan va kelajakni o'ylaydigan bo'lish.

**Fare la civetta** - Ahmoqona gapirib e'tiborni tortmoq.

**Aver la memoria come un elefante** - Juda zo'r xotiraga ega.

#### **9. Modi di dire con i colori - rang – tus nomlariga oid iboralar:**

**Passare la notte in bianco** - Tunni uyqusiz o'tkazish.

**Essere bianco dalla paura** - Juda qo'rqmoq.

**Dare / fare un assegno in bianco** - Kingadir moliyaviy ekinlik (pul sarflashga)/ruxsat berish.

**Fare una settimana bianca** - Tog'da qishki ta'tilni o'tkazish.

**Vedere nero** - Hammasini salbiy jihatdan ko'rish.

**Essere nero** - Juda yomon kayfiyatda bo'lish.

**Cronaca nera** - Kriminal xabarlar

**Essere al verde** - Pulsiz bo'lmoq.

**Essere verde dall'invidia** - Juda hasadgo'y bo'lish.

**Avere il pollice verde** - Gul/o'simlik parvarishlashda uddaburon. Qo'li gul.

**Dare il disco verde** - Biror narsaga yo'l ochib berish.

**Vedere rosso** - Jahli chiqqan.

**Essere rosso dalla vergogna** - Juda tortinmoq/uyalmoq.

#### **9. Modi di dire sul tempo - vaqt so'ziga oid iboralar:**

**A tempo** – Vaqtida[4,35].

**A tempo avanzato** - Bo'sh vaqtlarda

**Ad un tempo** - Bir vaqtda

**Col tempo** - O'z vaqti bilan, o'z vaqtida

**Da piu tempo** - Uzoq vaqtga

**Da tempo** - Allaqachon

**Di gran tempo** - Katta yoshda

**Di mezzo tempo** - O'rta yosh

**Essere a tempo a (+inf)** - O'z vaqtida ulgurish

**Essere in tempo** - Ulgirmoq.

**Fare il suo tempo** - O'z vaqtini yashagan/o'z davrida yashagan (charchagan)

**Fare in tempo a (+inf)** - O'z vaqtida ulgurmoq.

**Fino a poco tempo addietro** - Yaqin vaqtgacha

**10. Modi di dire sulla famiglia - oila mavzusiga oid iboralar:**

**Fare famiglia con qd** - Biror kishi bilan birga yashash

**Figlia di famiglia** - Yaxshi oilaning qizi

**Figlio di famiglia** - Taniqli oila farzandi

**Farsi una famiglia** - Oila qurish

**Tenere famiglia** - Oilani birlashtirib ushlab turish

**Fanciulla madre** -Yolg'iz ona

**Fare una scena madre** - Jahl bilan ko'p gapirish

**Potrebbe essere tuo padre (tua madre)** - U sening ota-onangdek

**Sollecito come una madre** - O'z onasidek g'amxo'r, mehribon.

**Rifare il nonno** - Bolaga bobosining ismini berish.

**La moglie del barbiere** - Yengil tabiatli ayol

**11. Modi di dire sulla terra - yer so'ziga oid iboralar:**

**Cadere a terra** -Muvaffaqiyatsizlikka uchrash, qulash.

**A fine terra** -Dunyoning chekkasida

**Ci corre quanto dal cielo alla terra** - U yerdan osmon qadar uzoqda

**Esserci differenza quanto dal cielo alla terra** - Yer bilan osmonchalik farqi

bo'lmoq

**Farsi terra terra** -Yarashmoq

**Inchino profondo (fino a terra)** - Yerga egilib ta'zim qilish.

**Interrare** - Dafn qilish

**Mettere piede a terra** - Yerga tushish (ot, arava va

boshqalardan)

**Terra pagina** - Madaniyat va san'at bo'limi (Italiya gazetalarida)

**Terra promessa** - Va'da qilingan yer

**12. Modi di dire sulla luna - oy va quyosh so'zlariga oid iboralar:**

Colpo di luna - Tasodifiy ehtiros

Luna di miele - Asal oyi

Vivere nel mondo della luna - Dunyodan tashqarida, boshqa dunyoda yashamoq

Levare le pecore dal sole - Biror narsani yashirmoq

Mangiare un poco di sole - Quyoshda toblanmoq

Mettere la pancia al sole - Xavotirsiz/tashvishsiz yashamoq

Posto al sole -Quyoshli joy, quyosh tushadigan joy

**13. Modi di dire sulla parola e parlare - so'z va so'zlashga oid iboralar:**

**Ritira la parola!** - So'zlaringni/gapingni qaytarib ol.

**Rubare la parola in bocca a qd** - Birov aytmoqchi bo'lgan narsani boshqasi ilg'ab oldindan aytib qo'yish

**Senza dir parola** - Bir so'z demasdan

**Stando alla parola** - So'zma-so'z

**Tradurre a parola** - So'zma-so'z tarjima qilish

**Uomo di parola** - So'zida turadigan/ishonchli odam

**Perdere il dono della parola** - Nutq kuchini yo'qotish

**Parla per parola** - So'zma-so'z

**14. Modi di dire sul pace - tinchlik so'ziga oid iboralar:**

**Con sua buona pace** -Sizning ruxsatingiz bilan

**Fare pace** -Tinchitmoq

**Fare pace con se** - Tinchlanmoq

**Lasciare in pace** - Tinch qo'yish

**Mettersi l'animo in pace** - Murosaga kelish

**Nemmeno un momento di pace** - Bir dam orom/tinim yo'q

**Non aver pace (requis)** - Orom/dam nimaligini bilmaydigan

**Pace e calma** - Tinch va sokin

**Prendersi qc in santa pace** - Har narsaga sabr qilish.

**XULOSA**

Frazeologik iboralarni turli tomondan o'rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish,





umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari xorijiy tildagi iboralarning tarjimasi va muqobilini topish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda o'zbek tilidagi iboralarni chet tillarida va aksincha chet tillardagi iboralarni to'g'ridan to'g'ri asliyat tilidan o'zbek tilidagi tarjimada aks ettirish alohida ahamiyatga ega. Tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirim talqin etish hamda tarjimaning badiiy nafosati va milliy xususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan muqobil til va nutq birliklari tanlash vazifasi qo'yiladi. Chunonchi, muallif tomonidan foydalanilgan har bir bayon va tafsilot, har qanday so'z va ibora asosiy g'oyaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadiki, asarning tarkibiy qismini tashkil etadigan bunday badiiy-tasvir vositalarning to'la-to'kis idrok etilishi va tarjimada ijodiy qayta yaratilishigina muloqot maqsadiga erishish imkoniyatini yaratadi.

## REFERENCES

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2009. – 122 б.
2. Kamolov N. “Tarjima san’ati” maqolalar to’plami. Bu qadimiy san’at. – T.: G’ofur G’ulom, 1976. – 118 b.
3. Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O’qituvchi, – 1978. – 291b
4. T.Oltiev, B.Xudoyqulov. “Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi” lug’ati. – SamDCHTI :2021.
5. Xudoyqulov B. “Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari”. - Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari konferensiya materiallari. 2021. 312 b.
6. Xudoyqulov B. “Italyan tilida ayrim fe’llar bilan ishlatiladigan iboralar va ularning semantik tahlili”. – Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi -1/2022. 268 b.
7. Xudoyqulov B.- Italyan tilidagi ayrim iboralarning tajimasi xususida “Сўз санъати халқаро журнали”. – 4 jild, 6 son. 2021. 175 b.
8. Xudoyqulov B.- Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language - “Commonwealth Journal of Academic Research (CJAR.EU)” volume 3. Issue 1. 2022. 5 b.
9. Xudoyqulov B. – Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari - “Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”, 1(11): 2021. 948 b.

